

**“TIQXMMI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
FUNDAMENTAL VA AMALIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/31.03.2022 .T/FM .10.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI FUNDAMENTAL
VA AMALIY TADQIQOTLAR INSTITUTI**

XUDOYBERDIYEVA MALIKA KAROMAT QIZI

**AKSIAL-SIMMETRIK QORA O‘RALAR ATROFIDA ASTROFIZIK
JARAYONLAR**

**01.04.02 – Nazariy fizika
01.03.01-Astronomiya**

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent - 2023

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on Physical
and Mathematical Sciences**

Xudoyberdiyeva Malika Karomat qizi

Aksial-simmetrik qora o'ralar atrofida astrofizik
jarayonlar 3

Худойбердиева Малика Каромат қизи

Астрофизические процессы вокруг аксиально-симметричных чёрных
дыр 19

Khudoyberdieva Malika Karomat qizi

Astrophysical processes around axial-symmetric black
holes..... 35

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

List of published works
Список опубликованных работ..... 42

**“TIQXMMI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
FUNDAMENTAL VA AMALIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/31.03.2022. T/FM. 10.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
FUNDAMENTAL VA AMALIY TADQIQOTLAR INSTITUTI**

XUDOYBERDIYEVA MALIKA KAROMAT QIZI

**AKSIAL-SIMMETRIK QORA O‘RALAR ATROFIDA ASTROFIZIK
JARAYONLAR**

**01.04.02 – Nazariy fizika
01.03.01-Astronomiya**

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/FM759 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Fundamental va amaliy tadqiqotlar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning internet sahifasida (www.ifar.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ahmedov Bobomurat Juraevich
Fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Shaymatov Sanjar Ruzimurotovich
Fizika-matematika fanlari doktori, k.i.x

Atamurotov Farrux Shuxratovich
Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD

Yetakchi tashkilot

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya "TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti huzuridagi DSc.03/31.03.2022 T/FM .10.04 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "____" _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100000, Toshkent shahri, Qori Niyoziy ko'chasi 39-uy, Fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti, 108-katta majlislar zali; tel.: 71 237-09-61.; e-mail: info@ifar.uz)

Dissertatsiya bilan "TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100000, Toshkent shahri, Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy, Fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti, 108-katta majlislar zali; tel.: 71 237-09-61)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "____" _____ kuni tarqatildi.
(2023-yil "____" _____ dagi ____ raqamli reestr bayonnomasi)

A.R. Hayotov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi o'rinbosari f.-m.f.d., professor

E. X. Karimbayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi f.-m.f. bo'yicha PhD

B. M. Narzilloyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi
f.-m.f.d.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Hozirgi vaqtda dunyoda turli fizik va astrofizik hodisalarning matematik modellarini ishlab chiqish va takomillashtirishga katta e'tibor berilmoqda. Xususan, Event Horizon teleskopi tomonidan olingan so'nggi kuzatuv ma'lumotlari galaktikalar markazida qora o'ralar soyasi mavjudligidan dalolat beradi. Boshqa tomondan, fundamental fizikada yagona maydon nazariyasini izlash, mavjud umumiy nisbiylik nazariyasiga yangi muqobil nazariyalarini ishlab chiqish jihatidan ham dolzarb mavzulardan hisoblanadi. Ushbu nazariyalarni kuzatuv va eksperimental ma'lumotlar bilan taqqoslash va yangi nazariyalarning parametrlari uchun chegaraviy qiymatlarni olish dolzarb muammo hisoblanadi.

Astrofizik kuzatuvlarning eksperimental texnikalari yordamida erishilayotgan zamonaviy yutuqlar ko'plab kundalik astronomik kuzatishlar natijalariga umumiy relyativistik va postrelyativistik ta'sirlarni hisobga olish talab qildi. Xususan, kuchli gravitatsiya maydonlariga ega kompakt massiv astrofizik ob'ektlarni kuzatish bilan bog'liq jarayonlar shular jumlasidandir. Modernizatsiyalangan gravitatsiya nazariyalarining tuzatishlarini hisobga olgan holda, kompakt ob'ektlar yaqinidagi astrofizik jarayonlarni tavsiflovchi yangi alternativ matematik modellarni ishlab chiqish ham dolzarb masala bo'lib hisoblanadi. Boshqa tomondan, kompakt ob'ektlar yaqinidagi geometriyaning Riemann tabiatining astronomik kuzatishlar natijalariga ta'sirini o'rganish va modellashtirish ham dolzarb masalalardandir.

Respublikamizda relyativistik astrofizika sohasida eksperimental va nazariy ishlar olib borishga shuningdek, jahon miqyosidagi fundamental tadqiqotlarni olib borishga katta e'tibor qaratilmoqda. Respublikamiz Prezidenti tomonidan ilgari surilgan 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida¹ mamlakatimizda ilm-fanning yuksalishi, fundamental tadqiqotlarning muhim yo'nalishlari va ularning natijalarini hayotga tatbiq qilish yo'llari ko'rsatib berilgan. Buni isboti o'laroq, shuni aytib o'tish mumkinki, oxirgi yillarda relyativistik astrofizikada kompakt ob'ektlar atrofida magnitlangan va zaryadlangan zarralarning harakati, ularning qora o'ra tomonidan tutib qolinishi, zarralarning fizik xususiyatlari, kompakt ob'ektlar atrofidagi tashqi magnit maydon va ularning tabiati chuqur o'rganildi. Qora o'ralarni kuzatishda qanchalik ulkan ishlar bajarilganligiga qaramasdan, bu boradagi ayrim masalalarga hali javob topilgancho yo'q.

Dissertatsiya tadqiqoti 2018 yil 29-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan chop etilgan "2019-2021 yillarda O'zbekistonda tuzilmali islohotlarning asosiy yo'nalishlarining yo'l xaritasi", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PQ-4947- sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni va

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi № PF-4947 sonli Farmoni "2017—2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi".

ilm-fanni rivojlantirish to'g'risidagi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ko'rsatilgan vazifalarni bajarishga ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiya rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarini rivojlantirishning II –“Energetika, energiya va resurs tejamlorligi” ustuvor yo'nalishiga muvofiq amalga oshirildi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Parametrizatsiyalangan metrika doirasida turli astrofizik jarayonlarni tadqiq etish ko'plab olimlar, jumladan yapon olimlaridan K.Xioki, K.Maeda, rus olimlaridan A.Zaxarov, V.Frolov, I. Novikov, nemis olimlaridan C.Laemmerzahl, J.Kunz, A. Grezenbach, amerikalik olimlardan J. Psaltis, N. Yunes, chex olimlardan Z. Stuchlik, J. Schee, hind olimlaridan N. Dadhich, S. Ghosh, P. Joshi, M. Patil va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Ammo ushbu parametrizatsiyalangan metrika standart yechimlarni g'alayonlashtirish yo'li bilan olingan va keng qamrovga ega emas. Keng qamrovli parametrizatsiyalangan yechim modeli va formalizmi hozirgacha to'liq ishlab chiqilmagan.

Gravitatsiya nazariyasi doirasida kompakt ob'yektlar atrofidagi elektromagnit maydon va undagi magnitlangan zarracha harakatining tahlillari mahalliy olimlardan B.J.Ahmedov, A.A.Abdujabbarov, B.A.Toshmatov, J. Rayimbaev hamda horijiy olimlardan R.Wald, S.R. , F.de-Felice, F. Sorge va boshqalar shug'ullanishgan. Ushbu olimlar tomonidan zaryadlangan va magnitlangan zarralarning kompakt obyektlar atrofidagi harakati tadqiq etilgan. Ammo shunga qaramay, ushbu zarralarning harakatiga turli alternative gravitatsiya modellarning parametrlari va qorong'i moddani tavsiflovchi parametrlarning ta'siri o'rganilmaganligicha qolmoqda.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Astronomiya institutining F-FA-2021-432 “Sun'iy yo'ldoshlardan kichik massali rentgen qo'shaloq tizimlar uchun olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va qayta ishlash”, №BA-ΦA-Φ2-008 sonli “Izolyatsiya qilingan qora o'ralarning relyativistik astrofizikasi va qora o'ralarga ega yaqin binar tizimlar”, №MRB – AN – 2019 – 29-sonli va “Kompakt astrofizik ob'yektlarni modellashtirish va ularning kuzatuv xarakteristikalarini RT-70 teleskopi va Rossiyaning Gamma-400 orbital teleskoplari parametrlari bo'yicha hisoblash” loyihalari doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi:

Tadqiqot ishining maqsadi aksial-simmetrik kompakt ob'yektlar uchun umumlashgan yechim shakllantirish.

Tadqiqot vazifalari:

Gravitatsion maydon uchun yangi umumlashtirilgan parametrlangan aksial-simmetrik yechim topish;

magnitlangan zarrachalar dinamikasini tahlil qilish, xususan aylana orbitalarda zarrachalarning energiyasi va impuls momenti uchun ifodalar olish;

Rastall gravitatsiyasida CRNK (Zaryadlangan va aylanuvchi NUT Kiselov) qora o'rasi atrofida hosil bo'lgan foton sferasiga fazo-vaqt parametrlarining ta'sirini tahlil qilish;

Rastall gravitatsiyasi parametri qiymatining qora o'ra soyasi o'lchamlariga ta'sirini tadqiq etish;

CRNK (Zaryadlangan va aylanuvchi NUT Kiselov) fazo-vaqt parametrlarining qiymatlari ortishi bilan fotonlarning markaziy ob'yektga eng yaqin yaqinlashish radiusiga ta'sirini o'rganish.

Tadqiqot ob'yekti astrofizik qora o'ralar, parametrizatsiyalangan yechim, magnitlangan zarralar.

Tadqiqot predmeti kompakt gravitatsion ob'yektlar yaqinidagi astrofizik jarayonlar, differensial tenglamalarni yechishning sonli va analitik usullari, parametrizatsiyalangan yechim olish va ularni qo'llash mexanizmlari.

Tadqiqot usullari. Umumiy nisbiylik nazariyasida makroskopik elektrodinamika va metrik affin differensial geometriyaning matematik apparati, harakat va maydonning differensial tenglamalarini yechishning analitik va raqamli usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Gravitatsion maydon uchun berilgan metrikaning beshta noma'lum funksiyasi yordamida ifodalangan yangi umumlashirilgan parametrlangan aksial-simmetrik yechim taklif etildi. Bu metrik funksiyalarning tegishli tanlovi asosida ma'lum bo'lgan relativistik yechimlarga mos kelishi ko'rsatildi.

Magnitlangan zarrachalar dinamikasini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, aylana orbitalarda zarrachalarning energiyasi ham, impuls momenti ham magnitlangan zarrachaning qiymati ortishi bilan ortadi. Bundan tashqari, magnitlangan zarrachaning qiymati ortishi bilan zarralarning eng kichik doiraviy orbita radiusi ham ortib borishi ko'rsatildi.

Rastall gravitatsiyasida CRNK (Zaryadlangan va aylanuvchi NUT Kiselov) qora o'rasi atrofida hosil bo'lgan foton sferasiga fazo-vaqt parametrlarining ta'sirini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, qora o'ra soyaning o'lchami NUT parametri ortishi bilan bir oz ortadi va elektromagnit parametrining oshishi bilan u kamayadi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Rastall gravitatsiyasi parametri qiymatining kamayishi qora o'ra soyasining o'lchamini kattalashtirishi ko'rsatilgan.

Fotonlarning markaziy qora o'raga eng yaqin yaqinlashish radiusi va fotonlarning ta'sir parametri o'rtasidagi munosabatdan metrik parametrlarning kattaroq qiymatlari uchun bu munosabat taxminan chiziqli bo'lishi aniqlandi.

Impakt parametrining qat'iy qiymati uchun CRNK(Zaryadlangan va aylanuvchi NUT Kiselov) fazo-vaqt parametrlarining qiymatlari ortishi bilan fotonlarning markaziy ob'yektga eng yaqin yaqinlashish radiusi pasayishi ko'rsatilgan. Qolgan fazo-vaqt parametrlari qiymatlarining oshishi bilan eng yaqin doiraviy orbita radiusiga teskari ta'sir etishi ham kuzatilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda umumiy nisbiylik nazariyasi va nazariy fizikaning zamonaviy usullaridan hamda samarali raqamli usullar va algoritmlardan foydalanilgani; olingan nazariy natijalarni astronomik, astrofizik kuzatuvlar natijalari bilan hamda boshqa mualliflar tajribalari bilan solishtirilganligi; olingan xulosalarning gravitatsion kompakt ob'ektlar maydon nazariyalarining asosiy tamoyillari bilan mosligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati parametrlangan metrikani tahlil qilish va qora o‘ralar uchun maxsus yechimlar bilan taqqoslash gravitatsiyaning turli matematik modellarini o‘rganish uchun foydali vosita bo‘lishi mumkinligini anglatadi. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ular LISA va EHT teleskoplari kuzatuvlari bilan qora o‘raning dinamik va statsionar fazo-vaqt cheklovlarini qurishda rol o‘ynashi mumkin. Shuningdek, magnitlangan zarrachalar harakatini o‘rganish, magnitlangan neytron yulduzlarning supermassiv qora o‘ralar atrofida harakatini tavsiflash uchun matematik modellarni yanada takomillashtirish uchun ishlatilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Umumiy nisbiylik nazariyasida magnitlangan va zaryadlangan zarralarning impuls momenti o‘rganish bo‘yicha ishlab chiqilgan usullar asosida:

magnitlangan zarralar harakati va magnit effektlari bo‘yicha olingan ilmiy natijalar Shanxay shahridagi Fudan universiteti (FU) olimlari tomonidan foydalangan (Fudan Universiteti, Xitoy, 2023 yil 6-fevraldagi ma‘lumotnomasi). Magnitlangan zarrachalarning qiymati va deformatsiyalangan fazoning bu zarrachalarning orbitalariga ta‘siri hisoblab chiqildi.

Zaryadlangan zarrachalar harakati bo‘yicha natijalar xorijiy tadqiqotchilarning ishlarida, yuqori impakt faktorli xorijiy jurnallarda (The European Physical Journal C, Volume 82, Issue 12, article id.1110; The Astrophysical Journal, Volume 935, Issue 2, id.91, 31 pp; Universe, vol. 8, issue 3, p. 182; Physical Review D, Volume 102, Issue 12, article id.124078 va boshqalar) chop etilgan ilmiy ishlarda foydalanildi. Ular magnitlangan zarrachalarning aylanuvchi qora o‘ra atrofidagi ta‘sirini tavsiflash uchun ishlatiladi. Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi modernizatsiyalangan gravitatsiya nazariyalar doirasida magnitlangan zarrachalarning kompakt ob‘yektlar atrofidagi harakati haqida ma‘lumot olish imkoni yaratildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqotning asosiy natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma‘ruzalar qilinib, tegishli muhokamalardan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatida 6 ta ilmiy maqola (4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rt bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 95 bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzusining dolzarbligi, zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga bogʻliqligi, muammoning oʻrganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi va tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obʻyekti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijasi, ishonchliligi, natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, natijalarining aprotatsiyasi, natijalarining eʼlon qilinishi hamda dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi toʻgʻrisida qisqacha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Qora oʻralar uchun astrofizik muammolar”** deb nomlanib, singulyarlikdan regulyarlikka oʻtish usullari oʻrganilgan va gravitatsion maydon uchun parametrizatsiya yechimi taklif qilingan.

Umumiy nisbiylik nazaryasida nochiziqli elektrodinamika (NED) hisobga olgan holda Lagrange zichligini quyidagi ifoda bilan aniqlanadi.

$$L = \frac{4\mu}{\alpha} \frac{(\alpha F)^{\frac{\nu+3}{4}}}{\left(1 + (\alpha F)^{\frac{\nu}{4}}\right)^{1+\frac{\mu}{\nu}}}, \quad (1)$$

Bu yerda $F = F^{\mu\nu}F_{\mu\nu}$ Faradey skalyari. $\alpha > 0$ parametri nochiziqli taʼsir kuchini tavsiflaydi, $\mu > 0$ nochiziqli darajasini xarakterlaydi va $\nu > 0$ aniq yechim uchun elektromagnit maydon xarakterini boshqaruvchi erkin parametr. Faradey skalyari $F > 0$ boʻlganda magnitlangan umumiy qora oʻra yechimlari uchun NED nazariyasi yaxshi natijalarga ega. Umumiy sferik simmetrik qora oʻra fazo-vaqt metrikasi Schwarzschild metrikasiga oʻxshash shaklga ega va standart Schwarzschild kordinatalarida uning chiziq elementi quyidagi shaklga ega.

$$ds^2 = -\left(1 - \frac{2m(r)}{r}\right) dt^2 + \frac{dr^2}{\left(1 - \frac{2M}{r}\right)} + r^2 d\theta^2 + r^2 \sin^2\theta d\varphi^2, \quad (2)$$

bu yerdagi $m(r)$ funksiyasi quyidagi koʻrinishga ega.

$$m(r) = \frac{Mr^\mu}{(r^\nu + q^\nu)^{\frac{\mu}{\nu}}}, \quad (3)$$

regulyar yechimlarga faqat $\mu \geq 3$ parametr uchun ruxsat beriladi. Tadqiqotimizda biz massa funksiyasi boʻlgan umumiy singulyar magnitlangan qora oʻralarni metrika doirasida koʻrib chiqamiz. Olib borilgan oʻrganishlar tufayli astrofizik jihatdan tegishli holatlar $\nu = 1$ parametri uchun roʻy berishi va Maxwell NED qora oʻralariga mos kelishi aniq. Shuning uchun oʻrganishlarimizda yuqoridagi fazo-vaqt holatini afzal koʻramiz.

Qora oʻra gorizontning holati quyidagi shart bilan belgilanadi.

$$f(r) = 1 - \frac{2m(r)}{r}. \quad (4)$$

Gravitatsion maydon uchun berilgan metrikaning beshta nomaʼlum funksiyasi yordamida ifodalangan yangi umumlashtirilgan parametrlangan aksial-

simmetrik yechim taklif etiladi. Bu metrik funksiyalarning tegishli tanlovi asosida ma'lum bo'lgan relativistik yechimlarga mos kelishi ko'rsatiladi.

$$ds^2 = -dt^2 + \mathcal{A}(dt + \mathcal{B}\sin^2\theta d\varphi)^2 + \mathcal{D}dr^2 + \mathcal{E}d\theta^2 + \mathcal{F}\sin^2\theta d\varphi^2, \quad (5)$$

noma'lum funksiyalar $\mathcal{A}, \mathcal{B}, \mathcal{D}, \mathcal{E}, \mathcal{F}$ faqat r va φ ga bog'liq.

Xususan, Kerr metrikasi ham bu ko'rinishga keltiriladi (Boyer va Lindquist, 1967)

$$ds^2 = -dt^2 + \frac{2Mr}{r^2 + a^2 \cos^2\theta} (dt + a \sin^2\theta d\varphi)^2 + \frac{r^2 + a^2 \cos^2\theta}{r^2 - 2Mr + a^2} dr^2 + (r^2 + a^2 \cos^2\theta) d\theta^2 + (r^2 + a^2) \sin^2\theta d\varphi^2. \quad (6)$$

Metrik tenzorning noldan farqli komponentalari shu formulalar bilan aniqlanadi.

$$\begin{aligned} g_{00} &= -(1 - \mathcal{A}), & g_{03} &= \mathcal{A}\mathcal{B}\sin^2\theta, & g_{11} &= \mathcal{D}, \\ g_{22} &= \mathcal{E}, & g_{33} &= (\mathcal{A}\mathcal{B}^2\sin^2\theta + \mathcal{F})\sin^2\theta, & g &= -\mathcal{H}\mathcal{E}\mathcal{D}\sin^2\theta, \\ g^{00} &= -\frac{1}{\mathcal{H}}(\mathcal{A}\mathcal{B}\sin^2\theta), & g^{03} &= \frac{1}{\mathcal{H}}\mathcal{A}\mathcal{B}, & g^{11} &= \frac{1}{\mathcal{D}}, \\ g^{22} &= \frac{1}{\mathcal{E}}, & g^{33} &= \frac{1}{\mathcal{H}\sin^2\theta}(1 - \mathcal{A}), & \mathcal{H} &\equiv \mathcal{A}\mathcal{B}^2\sin^2\theta + \mathcal{F}(1 - \mathcal{A}). \end{aligned} \quad (7)$$

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Zaryadlangan qora o'ra atrofida zaryadlangan zarralar harakati”** deb nomlanadi va Gamilton formalizmidan singulyar umumiy magnitlangan qora o'ralar yonida elektr zaryadlangan zarralar dinamikasini tavsiflash uchun foydalanamiz.

$$H = \frac{1}{2} g^{\alpha\beta} (\pi_\alpha - q_p A_\alpha) (\pi_\beta - q_p A_\beta) + \frac{m^2}{2}, \quad (8)$$

Gamilton harakat tenglamalari esa quyidagicha tavsiflanadi.

$$\frac{dx^\alpha}{d\lambda} = \frac{\partial H}{\partial \pi_\alpha}, \quad \frac{d\pi_\alpha}{d\lambda} = -\frac{\partial H}{\partial x^\alpha}. \quad (9)$$


Bu yerda m - sinov zarrachasining massasi, π_α - kanonik 4-impuls, q_p - sinov zarra zaryadi va λ affine parametri bo'lib xususiy vaqt bilan quyidagicha bog'langan $\lambda/\tau = m$.

Effektiv potensial gravitatsion ta'sirni, impuls momenti va elektromagnit potensial energiyasi tomonidan berilgan markaziy kuch potensialini tavsiflaydi. Musbat impuls momenti $L > 0$ soat yo'nalishiga teskari aylantirilgan zarraga to'g'ri keladi. Elektromagnit va gravitatsiyaviy o'zaro bog'liqlikni tavsiflovchi parametr e quyidagicha kiritilgan.


$$e = \frac{q_p Q_m GM}{mc^4}, \quad (10)$$

$$V_{eff}(r, \theta) = \sqrt{\left(1 - \frac{2m(r)}{r}\right) \left[\frac{(L - e \cos\theta)^2}{r^2 \sin^2\theta} + 1\right]}. \quad (11)$$

Effektiv potensial $V_{eff}(r, \theta)$ uchun e parametrning musbat va manfiy qiymatlarining ko‘rinishlari 1-rasmدا aks ettirilgan. Parametr e ga nisbatan effektiv potensialning muhim simmetriyasi mavjud bo‘lib, agar biz gravomagnet parametrning ishorasini va $\theta \rightarrow \pi - \theta$ larni bir vaqtda o‘zgartirishlarini bajarsak bir xil natijalar hosil bo‘ladi. Biz bu tasdiqni effektiv potensial ifodasidan osonlikcha ko‘rishimiz mumkin.




1-rasm. Umumiy qora o‘ra maydonidagi zaryadli zarraning effektiv potentsiali, parametrlari $\alpha=0.3$, $q = 0.5$, $\mu = 3$, $\nu = 1$ va $L = 3$ bo‘lgan qiymatlarda. Chap tomonda parametr $e = -1$, o‘ngda $e = 1$.



2-rasm. Parametrlari $\alpha=0.3$, $q = 0.5$, $\mu = 3$, $\nu = 1$, $L = 3$ va $e = -1$ va $L = 3$ bo‘lgan umumiy qora o‘ra maydonida zaryadlangan zarrachalarning effektiv potentsiali.

Biz effektiv potensialning $\theta = \text{const}$ va $r = \text{const}$ bo‘lgan qism kesimlarini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu rasmlar effektiv potensialning ekvatorial tekislikka nisbatan $\theta = \pi/2$ simmetrik emasligini aniq ko‘rsatib beradi va bu e parametr mavjudligidan, elektr zaryadlangan zarrachaning qora o‘ra magnet monopol

zaryadi bilan elektromagnit o‘zaro ta’siri natijasiga muoffiqdir. Neytral zarralar uchun bu assimetriya yo‘qoladi.



3-rasm. Trayektoriyalar (qalin chiziqlar) va harakat cheklovlari (uzlukli egr chiziqlar) bilan aks ettirilgan turli parametrlar quyidagicha tanlab olingan $\alpha=0.3$, $q=0.5$, $v=1$, $e = -1$ va μ : $\mu = 2$ (ko‘k), $\mu=4$ (sariq) $\mu=6$ (yashil) va $v=1,2,3$. Qora chiziq magnit monopole maydonda joylashgan Schwarzschild geometriyasidagi zaryadlangan zarra harakatini tavsiflaydi.

Parametr v ni ortirib borish fonida zaryadli zarra orbitasining harakati magnit monopol maydonida joylashgan Schwarzschild qora o‘ra atrofidagi orbitalarga yaqinlashib boradi. Schwarzschild holati bilan taqqoslaganda zaryadlangan zarrachalar harakatidagi eng katta farqlar Maxwell NED magnitlangan qora o‘ralar bilan bog‘liq degan xulosaga kelishimiz mumkin. Ushbu farqlar Bardeen qora o‘ralari uchun ($v = 2$) kamroq, Hayward qora o‘ralarida esa deyarli to‘liq bartaraf etilgan ($v = 3$).

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Episiklik harakat va magnitlangan qora o‘ra atrofida magnitlangan zarralar harakati**” deb nomlangan bo‘lib, magnitlangan qora o‘ra atrofidagi magnitlangan zarralar harakatini o‘rganishdan iborat.

Effektiv potensial quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi.

$$V_{eff}(r, L, B, q) = f(r) \left[\left(1 - \frac{B}{r^2}\right)^2 + \frac{L^2}{r^2} \right], \quad (12)$$

$\beta = \mu / (mM)$ - magnitlangan zarrachani xarakterlovchi o‘lchovsiz parameter.

Markaziy ob‘yekt atrofida magnitlangan zarrachaning doiraviy turg‘un orbitalari standart shartlar bo‘yicha quyidagicha aniqlanishi mumkin.


$$V'_{eff} = 0 \quad (13)$$

$$V''_{eff} \geq 0.$$

Magnitlangan zarrachaning doiraviy orbitalar bo‘ylab o‘ziga xos impuls momentiga energiyasini quyidagi ifodalar bilan aniqlash mumkin:


$$L^2 = \frac{(r^2 - B)(r(r^2 - B)f'(r) + 4Bf(r))}{r^2(rf'(r) - 2f(r))},$$

$$\varepsilon^2 = \frac{2f^2(r)(B^2 - r^4)}{r^4(rf'(r) - 2f(r))}. \quad (14)$$




4 -rasm. Magnitlangan zaryad parametri va parametr β ning har xil qiymatlari uchun doiraviy orbitalarning o‘ziga xos burchak impulsining radiusga bog‘liqligi.

4-rasmdan ko‘rish mumkinki, qora o‘ra magnit zaryadining (parametr β) oshishi (kamayishi) magnitlangan zarrachaning o‘ziga xos impuls momentining minimal qiymatini pasaytiradi (oshiradi). Bundan tashqari, har ikkala magnitlangan zaryad parametri va parametr β ning oshishi bilan o‘ziga xos impuls momenti minimal bo‘lgan masofa qiymati kamayadi.



5-rasm. Doiraviy orbitalar uchun energiyaning magnitlangan zaryad parametri va β parametri uchun har xil qiymatlari uchun radial bog‘liqligi.

Magnitlangan zarrachaning solishtirma energiyasining b parametri va magnit zaryad parametrining turli qiymatlariga radial bog‘liqligi 4-rasmda ko‘rsatilgan. 5-rasmda q va b parametrlari ortishi bilan ISCO radiusi markaziy tomonga siljishini ko‘rsatadi. qora tuynuk va minimal energiya qiymatlari kamayadi.




6-rasm. Umumiy qora o‘ralar atrofida magnitlangan zarrachaning ISCO radiusi $\nu=1$ va $\nu=2$ parametrlari uchun.

ISCO radiusining magnitlangan zaryad parametriga β va ν parametrlarining har xil qiymatlari uchun bog‘liqligi 6-rasmda keltirilgan, $\mu=3$, $\alpha=0.3$. Rasmlardan ko‘rish mumkinki, β parametrining o‘sishi ISCO radiusining pasayish tezligini oshiradi va $\nu=1$ va $\nu=2$ holatlarini taqqoslashda, parametrning $\nu=2$ bo‘lganida $\nu=1$ ga qaraganda ta’siri kuchliroq ekanligini ko‘rsatadi.

7-rasmda ISCO radiusining magnit zaryad parametri q va ν parametrlarining har xil qiymatlari uchun β parametrga bog‘liqligi namoyish etilgan, $\mu=3$, $\alpha=0.3$. Magnit zaryad parametri q va β parametrlari ortishi bilan ISCO radiusi kamayishini kuzatish mumkin. Bizning raqamli hisob-kitoblarimiz shuni ko‘rsatadiki, magnit zaryad parametrining maksimal qiymatida, magnitlangan zarracha uchun, β parametrning har qanday qiymatlari uchun ISCO yo‘qoladi.

Bundan tashqari, $q < q_{\max}$ da ISCO radiusi borligi uchun β parametri uchun yuqori chegara mavjud va bu yuqori chegara β qiymatining oshishi bilan q parametrning kamayishi ro‘y beradi. Bu magnitlangan zarrachalar orbitasi magnit maydon va zarrachaning magnit momenti o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tufayli nostabil (beqaror) bo‘lib qoladi degan ma’noni anglatadi.




7-rasm. $\nu = 1$ va $\nu = 2$ parametrlari uchun umumiy regulyar qora o‘ralar atrofida magnitlangan zarrachaning ISCO radiusi.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi “**Rastall gravitatsiyasida aksial - simmetrik qora o‘raning optik xususiyatlari**” deb nomlanib, ushbu bobda Rastall gravitatsiya nazariyasining zaryadlangan va aylanuvchi NUT Kiselev (CRNK) qora o‘raning optik xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Rastall gravitatsiya kuchida CRNK qora o‘raning fazo- vaqtidagi fotonlarning harakatini o‘rganib, gravitatsion ob‘yektivlashtirish tufayli fotonni kesish burchagi asosan NUT zaryadiga, holat parametrining kvintessensiya tenglamasiga va kvintessensiya intensivligiga bog‘liqligi ko‘rsatilgan. Biz boshqa fazo- vaqt parametrlarining kesish burchagiga ta’siri ahamiyatsiz darajada kichik ekanligini kuzatamiz. Biz fazo- vaqt parametrlarining turli qiymatlari uchun Rastall gravitatsiya kuchida CRNK qora o‘raga tushgan soyaning shaklini taqdim etamiz. Qora o‘raning aylanish parametri qora o‘ra soyasining joylashuvi va radiusini juda kam o‘zgartirishini ko‘rsatamiz. Vaholanki, qolgan fazo-vaqt parametr qiymatlarining o‘zgarishi qora o‘raning kuzatilgan soyasining shakli va radiusini sezilarli darajada o‘zgartirishi mumkin. Biz qora o‘ra soyasining radiusi va fotonning burilish burchagi Rastall gravitatsiyasida CRNK qora o‘ra uchun Kerr qora o‘raga nisbatan kattaroq ekanligini kuzatamiz. Va nihoyat, biz fazo- vaqt parametrlari kuzatilgan R_s va δ_s qiymatlarini qanday o‘zgartirishi mumkinligini ko‘rsatamiz. Bizning natijalarimiz ko‘rsatadiki, R_s ning katta qiymatlari uchun δ_s parametrining kichikroq qiymatlariga ega bo‘lamiz.

8-rasmning yuqori o‘ng qismida ω parametri kamaygan qiymatlariga nisbatan Rastall gravitatsiyasida CRNK qora o‘ra soyasi radiusi ortishi ko‘rsatilgan. Shunisi e’tiborga loyiqki, ushbu ω parametrning nolga yaqin qiymatlari uchun Rastall gravitatsiyasida CRNK qora o‘rada hosil bo‘lgan soyaning o‘lchami Kerr qora o‘radagi kabi deyarli bir xil. Xuddi shu rasmdagi

ikkinchi qatorning chap qismida $k\lambda$ parametrining turli qiymatlari uchun Rastall gravitatsiyasidagi CRNK qora o'ra soyasining radiusini ko'rsatadi. Xuddi shu qismda shuni ko'rish mumkin, ushbu $k\lambda$ parametrning kichikroq qiymatlari uchun CRNK qora o'raning soyasining o'lchami Rastall gravitatsiyasida Kerr qora o'raga to'g'ri keladi.



8-rasm Rastall gravitatsiyasida CRNK qora o'raning soyasining shakli. Kerr qora o'rasi bilan taqqoslangan.

Bu va oldingi grafiklar shuni ko'rsatadiki, $k\lambda$ parametrining kichikroq qiymatlarida, ω parametrining qiymatlari nolga yaqin bo'lsa, Rastall gravitatsiyasida CRNK qora o'ralarining ko'rinadigan soyasini soyadan Kerr qora o'raning soyasidan ajratish qiyinlashadi. Rastall gravitatsiyasida CRNK qora o'ra

soyasining o'lchamining α parametriga kuchli bog'liqligini ko'rish mumkin, chunki ushbu α parametrning o'sishi bilan sezilarli darajada oshadi va 8-rasmdagi ikkinchi qatorning ikkinchi qismida ko'rsatilgan. Ko'rsatilgandek, α parametrining nolga yaqin qiymatlari uchun Rastall gravitatsiyasida CRNK qora o'ra soyasining o'lchami Kerr qora o'raning soyasi bilan bir xil bo'ladi. 8-rasmning oxirgi qatorining chap qismida Rastall gravitatsiyasi CRNK qora o'raning soyasi α spin parametrining turli qiymatlari uchun Kerr qora o'raning soyasi bilan taqqoslanadi. Bu yerda ta'kidlash kerakki, 8-rasmda zich chiziqlar Kerr holatiga, nuqtali chiziqlar esa Rastall gravitatsiyasidagi CRNK qora o'ra holatiga mos keladi. α spin parametrining qiymatlari faqat Kerr izlanishi uchun ko'rsatilgan bo'lsa-da, bir xil rangdagi nuqta chiziqlar Rastall gravitatsiyasidagi CRNK qora o'raga bir xil α spin parametri bo'lgan soyani ifodalaydi. Osonlik bilan ko'rish mumkinki, α aylanish parametrining o'sishi soyaning o'lchamini sezilarli darajada o'zgartirmaydi va faqat Kerr va CRNK fazosida soya doirasining markazini o'ngga siljitadi. 8-rasmning oxirgi diagrammasida q va α elektromagnit zaryad Rastall gravitatsiyasida CRNK qora o'ra atrofidagi soyaga qanday ta'sir qilishini ko'rsatadi. Ko'rinib turibdiki, q parametrini oshirish soyaning radiusini kamaytiradi.

XULOSALAR

“Aksial-simmetrik qora o'ralar atrofida astrofizik jarayonlar” dissertatsiyasi doirasida bajarilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar olindi:

1. Gravitatsion maydon uchun berilgan metrikaning beshta noma'lum funksiyasi yordamida ifodalangan yangi umumlashtirilgan parametrlangan aksial-simmetrik yechim taklif etildi. Bu metrik funksiyalarning tegishli tanlovi asosida ma'lum bo'lgan relativistik yechimlarga mos kelishi ko'rsatildi.
2. Magnitlangan zarrachalar dinamikasini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, aylana orbitalarda zarrachalarning energiyasi ham, impuls momenti ham magnitlangan zarrachaning qiymati ortishi bilan ortadi. Bundan tashqari, magnitlangan zarrachaning qiymati ortishi bilan zarralarning eng kichik doiraviy orbita radiusi ham ortib borishi ko'rsatildi.
3. Rastall gravitatsiyasida CRNK qora o'ra atrofida hosil bo'lgan foton sferasiga fazo-vaqt parametrlarining ta'sirini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, qora o'ra soyaning o'lchami NUT parametri ortishi bilan bir oz ortadi va elektromagnit parametrining oshishi bilan u kamayadi.
4. Bundan tashqari, Rastall gravitatsiyasi parametri qiymatining kamayishi qora o'ra soyasining o'lchamini kattalashtirishi ko'rsatilgan.
5. Fotonlarning markaziy qora o'raga eng yaqin yaqinlashish radiusi va fotonlarning ta'sir parametri o'rtasidagi munosabatdan metrik parametrlarning kattaroq qiymatlari uchun bu munosabat taxminan chiziqli bo'lishi aniqlandi.
6. Impakt parametrining qat'iy qiymati uchun CRNK fazo-vaqt parametrlarining qiymatlari ortishi bilan fotonlarning markaziy ob'yektga

eng yaqin yaqinlashish radiusi pasayishi ko'rsatilgan. Qolgan fazo-vaqt parametrlari qiymatlarining oshishi bilan eng yaqin doiraviy orbita radiusiga teskari ta'sir etishi ham kuzatilgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/31.03.2022.T/FM.10.04 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ ИНСТИТУТЕ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ И
ПРИКЛАДНЫХ ИССЛЕДОВАНИИ НАЦИОНАЛЬНОГО
ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОГО УНИВЕРСИТЕТА «ТИИИМСХ»**

**ИНСТИТУТ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ И ПРИКЛАДНЫХ
ИССЛЕДОВАНИЙ**

ХУДОЙБЕРДИЕВА МАЛИКА КАРОМАТ ҚИЗИ

**АСТРОФИЗИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ ВОКРУГ
АКСИАЛЬНО-СИММЕТРИЧНЫХ ЧЁРНЫХ ДЫР**

**01.04.02 – Теоретическая физика
01.03.01-Астрономия**

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам**

Ташкент – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за номером № В2022.3.PhD/FM759.

Диссертация выполнена в Институте фундаментальных и прикладных исследований при НИУ "ТИИМСХ".

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, английский, русский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.ifar.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Ахмедов Бобомурат Жураевич
доктор физико-математических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Шайматов Санжар Рузимуротович
доктор физико-математических наук, снс

Атамуротов Фаррух Шухратович
доктор философии (PhD) ф.-м.н.

Ведущая организация:

Самаркандский государственный университет имени Шарафа Рашидова

Защита диссертации состоится «__» _____ 2023 года в ___ часов на заседании Научного совета DSc.03/31.03.2022.T/FM.10.04 при Институте фундаментальных и прикладных исследований национального исследовательского университета "ТИИМСХ". Адрес: 100000, г.Ташкент, улица Кори Ниязова 39, Тел.: +998 71 237-09-61; e-mail: info@ifar.uz

Диссертация зарегистрирована в Информационно-ресурсном центре Института фундаментальных и прикладных исследований Национального исследовательского университета "ТИИМСХ". (регистрационный номер ____). С диссертацией можно ознакомиться в [Библиотеке](#) Института фундаментальных и прикладных исследований Национального исследовательского университета "ТИИМСХ". Адрес: 100000, г.Ташкент, улица Кори Ниязова 39, Тел.: +998 71 237-09-61

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2023 г.

(протокол рассылки № __ от «__» _____ 2023 г.)

А.Р. Хаётов
Заместитель председателя Научного совета
по присуждению
ученых степеней, д.ф.-м.н., профессор

Э. Х. Каримбаев
ученый секретарь Научного совета
по присуждению учёных степеней
доктор философии (PhD) ф.-м.н.

Б.М.Нарзиллоев
председатель научного семинара при
Научном совете по присуждению
ученых степеней, д.ф.-м.н.

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В настоящее время в мире уделяется огромное внимание на разработку и усовершенствованию математических моделей различных физических и астрофизических явлений. В частности, недавние наблюдательные данные полученные телескопом «Горизонта событий» указывают на наличие тени (силуэта) черных дыр в центре галактик. С другой стороны поиск единой теории поля в фундаментальной физике требует разработку новых альтернативных и/или модифицированных теорий гравитации к существующей общей теории относительности. Сравнение этих теорий с наблюдательными и экспериментальными данными и получение пороговых значений параметров новых теорий является актуальной задачей.

Современные достижения в экспериментальных методах астрофизических наблюдений потребовали учета общих релятивистских и пострелятивистских эффектов на результаты многих повседневных астрономических наблюдений. В частности, к ним относятся процессы, связанные с наблюдением компактных массивных астрофизических объектов с сильными гравитационными полями. Актуальным вопросом является также разработка новых альтернативных математических моделей, описывающих астрофизические процессы вблизи компактных объектов, с учетом поправок модифицированных и альтернативных теорий гравитации. С другой стороны, изучение и моделирование влияния риманова характера геометрии вблизи компактных объектов на результаты астрономических наблюдений также является актуальным вопросом.

В нашей Республике уделяется огромное внимание фундаментальным исследованиям в области релятивистской астрофизики черных дыр. Направления этих исследований, имеющих важное значение для развития науки нашей страны, связаны со Стратегией¹ действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан на 2017–2021 гг. В доказательство этого можно упомянуть, что в последние годы в релятивистской астрофизике стали изучаться движение намагниченных и заряженных частиц вокруг компактных тел, их захват чёрной дырой, физические свойства частиц, внешнее магнитное поле вокруг компактных тел и их природа была глубоко изучена. Несмотря на огромный объем работ по наблюдению за черными дырами, некоторые вопросы до сих пор не решены.

Данная диссертационная работа в определенной мере служит реализации задач, утвержденных в государственных нормативных документах, в Указах Президента Республики Узбекистана за № УП-4947 «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан» от 7 февраля 2017 года, а также в «Дорожной карте основных направлений

¹Указ Президента Республики Узбекистан № УП-4947 от 07 февраля 2017 г. «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан».

структурных реформ в Узбекистане на 2019-2021 годы», опубликованной правительством Республики Узбекистан 29 ноября 2018 года.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.

Данная диссертационная работа выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан II. “Энергетика, энерго- и ресурсосбережение”.

Степень изученности проблемы.

Исследованием различных астрофизических процессов в рамках параметризованной метрики рассмотрены многими учеными, в том числе японскими (К.Хiоki, К.Maeda), российскими (А. Захаров, В. Фролов, И. Новиков), немецкими (С.Laemmerzahl, J.Kunz, А. Grezenbach), американскими (J. Psaltis, N. Yunes), чешскими (Z. Stuchlik, J. Schee), индийскими (N. Dadhich, S. Ghosh, P. Joshi, M. Patil) и другие. Однако, эта параметризованная метрика получена путем возмущения стандартных решений и не является широкомасштабным. Широкомасштабная параметризованная модель решения и формализм еще не полностью разработаны.

В рамках теории гравитации анализа электромагнитного поля вокруг компактных тел и движения намагниченных частиц были изучены отечественными учеными, как Б.Ж. Ахмедов, А.А.Абдужаббаров, Б.А.Тошматов, Ж.Райимбаев, и зарубежными авторами таких как R.Wald, S.R. , F.de-Felice, F. Sorge и другие. Эти ученые изучали движение заряженных и намагниченных частиц вокруг компактных объектов.

Однако влияние параметров различных альтернативных моделей гравитации и параметров, описывающих тёмную материю, на движение этих частиц остаётся неизученным.

Связь темы диссертации с научно-исследовательскими работами научно-исследовательского учреждения, где выполнена диссертация.

Диссертационное исследование выполнено в рамках проектов Астрономического института, F-FA-2021-432 "Анализ и обработка данных, полученных со спутников для мало массивных рентгеновских двойных систем", № ВА-ФА-Ф2-008 "Релятивистская астрофизика изолированных черных дыр и тесных двойных систем с черными дырами", № MRB – AN – 2019 – 29 и "Моделирование компактных астрофизических объектов и расчеты их наблюдательных характеристик к параметрам телескопа РТ-70 и российского орбитального телескопа Гамма-400".

Целью исследования является формулировка обобщенного решения для аксиально-симметричных компактных объектов.

Задачи исследования:

нахождение нового обобщенного параметризованного аксиально-симметричного решения для источника гравитационного поля;

анализ динамики магнитно-заряженных частиц, в частности, получение выражений для энергии и углового момента частиц на круговых орбитах;

анализ влияния параметров пространства-времени на фотонную сферу, формирующуюся вокруг черной дыры CRNK в гравитации Расталла;

исследование влияния значения параметра гравитации Расталла на размеры тени черной дыры;

исследование влияния пространственно-временных параметров CRNK на радиус наибольшего сближения фотонов с центральным объектом.

Объектом исследования являются астрофизические черные дыры, параметризованное решение, намагниченные частицы.

Предмет исследования являются астрофизические процессы вблизи компактных гравитационных объектов, численные и аналитические методы решения дифференциальных уравнений, механизмы получения параметризованных решений и их применение.

Методы исследования. Математический аппарат макроскопической электродинамики и метрической аффинной дифференциальной геометрии в общей теории относительности, используются аналитические и численные методы решения дифференциальных уравнений движения и поля.

Научная новизна исследования заключается в следующем:

Предложено новое обобщённое параметризованное аксиально-симметричное решение для источника гравитационного поля, выраженное через пять метрических функций.

Анализ динамики магнитно-заряженных частиц показал, что как энергия, так и угловой момент частиц на круговых орбитах увеличиваются с увеличением их магнитного заряда. Также показано, что радиус внутренней стабильной круговой орбиты частиц увеличивается с увеличением магнитного заряда частиц.

Показано, что размер тени CRNK черной дыры в гравитации Расталла незначительно увеличивается с увеличением НУТ параметра и уменьшается с ростом электримагнитного параметра пространства-времени.

Практические результаты исследования заключаются в следующем:

Обнаружено, что уменьшение значения параметра Расталл гравитации увеличивает размер тени.

Из соотношения между радиусом наибольшего сближения фотонов с центральной черной дырой и прицельным параметром фотонов было получено, что это соотношение становится линейным при больших значениях метрических параметров.

